| TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI<br>("TURONBANK" ATB MISOLIDA) .....                                                                                      | 1191 |
| Togayev Salim Sobirovich                                                                                                                                                           |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL<br>BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                   | 1196 |
| Obidov Sanjar Omonxo'jayevich                                                                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH<br>IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL .....                                                 | 1202 |
| Qodirjonov Adhamjon                                                                                                                                                                |      |



|                                                                                                                                                                      |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH .....                                                      | 1206 |
| Suyunov Yorqin Bekturodovich                                                                                                                                         |      |
| BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI .....                                                               | 1212 |
| Arifbayev Bobur Dilshodovich                                                                                                                                         |      |
| СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» .....                                       | 1219 |
| Аблаева Валентина Борисовна                                                                                                                                          |      |
| FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT .....                                                  | 1227 |
| I. Imomov, F.Nishonov                                                                                                                                                |      |
| ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                                                   | 1234 |
| Шоев Алим Халмуратович                                                                                                                                               |      |
| ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME .....                                                       | 1239 |
| Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi                                                                                                                       |      |
| ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME .....                                                       | 1239 |
| Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi                                                                                                                       |      |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI .....                          | 1247 |
| Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova                                                                                                                                     |      |
| HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI .....                                                   | 1251 |
| Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich                                                                                                                                |      |
| КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ .....                                                                                      | 1257 |
| Менглиева Индира Баходировна                                                                                                                                         |      |
| ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ .....                                                                                                  | 1261 |
| Умарбеков Бахром Ботирбекович                                                                                                                                        |      |
| O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA) ..... | 1270 |
| Jorabaev Jasur Abduraxmanovich                                                                                                                                       |      |
| O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA) .....  | 1276 |
| Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich                                                                                                                                     |      |
| IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI .....                                                   | 1282 |
| Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich                                                                                                     |      |
| SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI .....                                             | 1286 |
| Majidova Dilnoza Bahromovna                                                                                                                                          |      |
| TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING (SI) TA'SIRI .....                                                                                        | 1290 |
| Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li                                                                                                                                |      |
| MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI .....                                        | 1300 |
| Xodjaeva Feruza Komilovna                                                                                                                                            |      |
| TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI .....                                                                 | 1305 |
| Saidakbarov Saidazam Aziz o'g'li                                                                                                                                     |      |
| KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBİ .....                                                                                                           | 1309 |
| Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna                                                                                                                                        |      |



|                                                                                                                                             |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI<br>BELGILARI .....                                                    | 1314 |
| S.S. Ismatillaeva                                                                                                                           |      |
| BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH<br>MASALALARI .....                                           | 1320 |
| Saidova Kamolat Farhodovna                                                                                                                  |      |
| КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ:<br>ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ .....                                    | 1326 |
| Нуриллоева Заррина Зокиржоновна                                                                                                             |      |
| SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR<br>OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....                | 1331 |
| Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi                                                                                                      |      |
| SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK<br>JIHATLARI .....                                           | 1334 |
| Abdullayev Abror Bozarboyevich                                                                                                              |      |
| ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА<br>И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....                                   | 1341 |
| Аминжоновна Вазира Мамасидиковна                                                                                                            |      |
| DZYUDUCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA<br>TA'SIRI.....                                              | 1350 |
| Shermatov Gulom Qaxxorovich                                                                                                                 |      |
| G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH<br>CHORALARI .....                                       | 1357 |
| Xasanov Adiz Xusenovich                                                                                                                     |      |
| O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA<br>QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....                      | 1363 |
| Beknazarov Behzod Baxtiyorovich                                                                                                             |      |
| IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC<br>OF UZBEKISTAN .....                                             | 1368 |
| Djumaniyazov Islam Karimbayevich                                                                                                            |      |
| O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI .....                                                           | 1374 |
| Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich                                                                                                            |      |
| TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR<br>TAHLILI .....                                                  | 1378 |
| Madaminov Bekzod Allayarovich                                                                                                               |      |
| IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI<br>VA XATARLARNI BOSHQARISH.....                          | 1383 |
| Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                              |      |
| TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH<br>VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI .....                           | 1387 |
| Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                             |      |
| ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ<br>И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК .....                              | 1392 |
| Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмутуллаева Севинч Хабибулла кизи                                                                         |      |
| TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA<br>DIVERSIFIKATSİYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....                          | 1399 |
| Norova Nozima Nabiyeвна                                                                                                                     |      |
| GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING<br>BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....                   | 1406 |
| Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi                                                                                                              |      |
| MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR<br>RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI) ..... | 1411 |
| Barnoqulova Marjona Otabek qizi                                                                                                             |      |



|                                                                                                                              |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING<br>AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEXANIZMLARI..... | 1417 |
| Xolikov Ravshan Anvar o'g'li                                                                                                 |      |
| SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY<br>SAMARADORLIGI.....                                | 1420 |
| Omonov Olim Murodullayevich                                                                                                  |      |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI<br>VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....      | 1424 |
| Sharifi Abdul Fatah                                                                                                          |      |



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI

**Sharifi Abdul Fatah**

Termiz davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan asosiy mexanizmlar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida investitsiya siyosatini liberallashtirish, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda raqamli boshqaruv vositalarining investitsion jozibadorlikni oshirishdagi roli o'rganildi. Statistik va qiyosiy tahlil usullari asosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi hamda yalpi ichki mahsulot o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi.

Tadqiqot natijalari investitsiya muhitini izchil takomillashtirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Maqolada investitsiya siyosatini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya muhiti, iqtisodiy o'sish, xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion jozibadorlik, davlat-xususiy sheriklik, institutsional islohotlar, soliq imtiyozlari, raqamli iqtisodiyot.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the key mechanisms aimed at improving the investment climate in the Republic of Uzbekistan and their impact on economic growth. The study examines the role of investment policy liberalization, improvement of the legal and regulatory framework, tax and customs incentives, public-private partnership mechanisms, and digital governance tools in enhancing investment attractiveness. Using statistical and comparative analysis methods, the relationship between foreign direct investment inflows and gross domestic product growth is assessed.

The findings indicate that systematic improvement of the investment climate serves as a crucial driver of accelerated economic growth, expansion of productive capacity, and strengthening of national competitiveness. The article also proposes scientific and practical recommendations for the further development of investment policy.

**Key words:** investment climate, economic growth, foreign direct investment, investment policy, investment attractiveness, public-private partnership, institutional reforms, tax incentives, digital economy.

**Аннотация.** В статье проводится комплексный анализ основных механизмов, направленных на улучшение инвестиционного климата в Республике Узбекистан, и их влияния на экономический рост. В рамках исследования изучена роль либерализации инвестиционной политики, совершенствования нормативно-правовой базы, налоговых и таможенных льгот, механизмов государственно-частного партнёрства, а также инструментов цифрового управления в повышении инвестиционной привлекательности. На основе статистических и сравнительных методов анализа оценена взаимосвязь между притоком прямых иностранных инвестиций и ростом валового внутреннего продукта.

Результаты исследования подтверждают, что последовательное совершенствование инвестиционной среды является важным фактором ускорения экономического роста, расширения производственного потенциала и повышения конкурентоспособности экономики. В статье разработаны научно-практические предложения и рекомендации по дальнейшему развитию инвестиционной политики.

**Ключевые слова:** инвестиционный климат, экономический рост, иностранные инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная привлекательность, государственно-частное партнёрство, институциональные реформы, налоговые льготы, цифровая экономика.



## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda innovatsion texnologiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya muhitini yaxshilash masalasi rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan keng ko'lamli institutsional va tarkibiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, huquqiy-me'yoriy bazaning takomillashtirilishi, soliq va bojxona tizimidagi islohotlar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining keng joriy etilishi hamda raqamli boshqaruv vositalarining rivojlantirilishi investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ortib, iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, global investitsiya oqimlaridagi o'zgaruvchanlik, mintaqaviy raqobatning kuchayishi hamda ayrim institutsional jarayonlarni yanada takomillashtirish zarurati investitsiya muhitini muntazam ravishda rivojlantirib borishni taqozo etadi. Ayniqsa, investitsiya mexanizmlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini ilmiy asosda baholash, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va samarali yechimlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash mexanizmlarini tizimli tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari, institutsional islohotlar va rag'batlantiruvchi mexanizmlar o'rganilib, ularni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bozorga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatga o'tishi butun dunyo bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday iqtisodiyotlar qatorida O'zbekiston ham investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hamda siyosiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekistonning qonunchilik tizimida investitsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim yangilanishlar joriy etildi. Asosiy e'tibor normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va biznes uchun qulay muhitni mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, davlat siyosatini samarali amalga oshirishda o'rta va uzoq muddatli strategik rejalarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni<sup>1</sup> ana shunday uzoq muddatli maqsadlarni o'zida mujassam etgan muhim dasturiy hujjatlardan biridir. Mazkur strategiya mamlakatni barqaror va diversifikatsiyalashgan rivojlanish yo'lga olib chiqish, uni yuqori o'rta daromadli davlatlar qatoriga qo'shish hamda jahon miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy mavqeiini mustahkamlashni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlarga erishishda investitsiya muhitini yanada yaxshilash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan<sup>2</sup>.

Xususan, hukumat kapital bozorlarini rivojlantirish bilan bir qatorda mamlakatning investitsion jozibadorligini yanada oshirishni strategik maqsad sifatida belgilagan. Ushbu yo'nalishda 250 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 110 milliard dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 30 milliard dollari esa davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari doirasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Mazkur ko'rsatkichlar investitsiya siyosatining uzoq muddatli va tizimli yondashuv asosida olib borilayotganini anglatadi.

Bundan tashqari, hududlarni sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qilish maqsadida ularning investitsiya reytingini oshirish va barqaror saqlab borish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Hududiy investitsion jozibadorlikni mustahkamlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish hamda mahalliy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati yildan-yilga ortib bormoqda va investitsiya muhiti ham shunga mos ravishda takomillashib bormoqda. Investitsiya muhitini yaxshilash hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya muhitining barqarorligi va shaffofligini yanada mustahkamlash maqsadida qonunchilik hamda me'yoriy-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston investitsiya qonunchiligini isloh qilish, investitsiya muhitini yanada rivojlantirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida izchil siyosat olib bormoqda.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2 <https://proreforms.uz/uz/publications/ozbekistonning-investitsiya-siyosati-huquqiy-muhit-va-iqtisodiy-korsatkichlar-qanday-227>



Xususan, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi investitsiya jarayonlarining huquqiy asoslarini mustahkamlab, investorlar huquqlarini kafolatlash va biznes muhitini barqarorlashtirishga xizmat qildi.

Bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosatni strategik asosda amalga oshirish O‘zbekistonni xalqaro investorlar uchun istiqbolli va barqaror investitsiya yo‘nalishi sifatida namoyon etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya muhitini yaxshilash va investitsiya oqimlarini rag‘batlantirish masalasi iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashning muhim omillaridan biri sifatida jahon va milliy iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Ilmiy tadqiqotlarda “investitsiya muhiti” tushunchasi institutsional tuzilma, huquqiy kafolatlar, makroiqtisodiy barqarorlik, soliq va bojxona tizimi, infratuzilma rivoji hamda davlat boshqaruvi samaradorligi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi.

Xususan, D. North tomonidan ishlab chiqilgan institutsional nazariya investitsiya faolligining asosiy sharti sifatida mulk huquqlarining ishonchli himoyasi va shaffof institutlarning mavjudligini asoslab beradi. R. Barro va X. Sala-i-Martin tadqiqotlarida investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning muhim omili sifatida baholanib, davlat siyosatining barqarorligi hamda soliq yukining optimalligi investitsiya qarorlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish masalasi J. Dunningning eklektik paradigmasi doirasida keng yoritilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, mamlakatning joylashuv afzalliklari, institutsional sifati va bozor hajmi investor qarorlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi hamda UNCTAD hisobotlarida biznes muhitini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, boshqaruv shaffofligini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish investitsiya muhitini yaxshilovchi muhim omillar sifatida qayd etilgan.

MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda post-sovet makonida institutsional islohotlarning chuqurligi investitsiya oqimlari hajmiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi ta‘kidlanadi. A. Aslund va S. Djankov ishlarida bozor institutlarini rivojlantirish, tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish investitsiya muhitini takomillashtirishning muhim sharti sifatida ko‘rib chiqilgan. Mintaqaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar hajmining ortishi nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki bandlik darajasining oshishiga, texnologik yangilanishga va eksport salohiyatining kengayishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida investitsiya siyosati milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida talqin etiladi. Sh. Shodmonov, A. Vahobov, D. G‘ozibekov, B. Xodiyev va boshqa iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida investitsiya muhitini yaxshilash mexanizmlari sifatida soliq va bojxona imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, investorlarga huquqiy kafolatlar berish hamda davlat boshqaruvini liberallashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, xususan, investitsiya qonunchiligini takomillashtirish, biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotgani empirik tadqiqotlarda asoslab berilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiya muhitini yaxshilash huquqiy, institutsional va iqtisodiy omillarning kompleks uyg‘unligi orqali iqtisodiy o‘shishni jadallashtiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida investitsiya muhitining hududiy va tarmoqlar kesimidagi xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish hamda ularning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini empirik jihatdan baholash dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) inobatga olgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda hamda to‘lov amalga oshirilgan vaqtidan qat‘i nazar, amalda o‘zlashtirilgan hajm asosida yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mashina, uskuna va inventarlarga 231,4 trln so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu jami investitsiyalar hajmining 46,9 foizini tashkil etadi. Qurilish-montaj ishlari bo‘yicha 212,8 trln so‘m investitsiya o‘zlashtirilgan va uning ulushi 43,1 foizga teng. Boshqa xarajatlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi esa 49,5 trln so‘mni tashkil etib, jami investitsiyalarning 10,0 foizini tashkil qilgan<sup>3</sup> (1-rasm).

3 <https://stat.uz/uz>


1-rasm. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi<sup>4</sup>

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatida kuzatildi — 70,1 % yoki 10,4 trln so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida mashina va uskuna sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida qayd etilib, 56,9 % yoki 13,1 trln so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da (2024-yil yanvar–dekabr)<sup>5</sup>.

2024-yil yanvar–dekabr oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi sezilarli darajada farqlanishini ko'rish mumkin. Investitsiyalar uchta asosiy yo'nalish — qurilish-montaj ishlari, mashina va uskuna xaridi hamda boshqa xarajatlar — kesimida shakllangan (2-rasm).

1-rasm. 2024-yilda hududlar bo'yicha asosiy kapital investitsiyalarining texnologik tarkibi (%)<sup>6</sup>

4 Muallif ishlanmasi

5 <https://stat.uz/uz/>

6 Muallif ishlanmasi



Qurilish-montaj ishlarining eng yuqori ulushi Xorazm viloyatida kuzatilib, 70,1 foizni tashkil etgan. Bu hududda investitsiyalar asosan infratuzilma va kapital qurilish loyihalariga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, Surxondaryo (58,2 %), Farg'ona (52,6 %) va Toshkent viloyati (51,6 %)da ham qurilish yo'nalishidagi investitsiyalar yuqori salmoqqa ega. Bu hududlarda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish jarayonlari faol kechayotganidan dalolat beradi.

Mashina, uskuna va inventarlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi bo'yicha esa Jizzax viloyati yetakchilik qiladi — 56,9 foiz. Shuningdek, Buxoro (56,3 %), Sirdaryo (54,5 %), Qashqadaryo (54,2 %) va Samarqand (53,5 %) viloyatlarida ham texnik qayta jihozlash va modernizatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar salmog'i yuqori. Bu hududlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sanoatni texnologik yangilash va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan siyosat ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Boshqa xarajatlar ulushi nisbatan past bo'lsa-da, ayrim hududlarda sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, Namangan viloyatida bu ko'rsatkich 16,3 foizni, Navoiy viloyatida 15,0 foizni tashkil etgan. Bu investitsiyalarning ma'lum qismi loyihaviy, tashkiliy yoki boshqa yordamchi xarajatlarga yo'naltirilayotganini anglatadi.

Umuman olganda, hududlar kesimida investitsiyalarning texnologik tarkibi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda shakllanayotganini ko'rish mumkin. Ayrim hududlarda qurilish va infratuzilma loyihalari ustuvor bo'lsa, boshqalarida ishlab chiqarishni texnik modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa investitsiya siyosatining hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilayotganini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar investitsiya muhitini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo'lib, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri izchil kuchayib bormoqda. Tadqiqot jarayonida investitsiya muhitini shakllantiruvchi asosiy mexanizmlar — investitsiya siyosatini liberallashtirish, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, soliq va bojxona rag'batlantirish choralari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etishning iqtisodiy o'sishga ta'siri kompleks tahlil qilindi.

O'tkazilgan statistik va qiyosiy tahlillar natijalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi yalpi ichki mahsulot o'sishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hamda yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan ijobiy bog'liqligini tasdiqladi. Shu bilan birga, institutsional islohotlar, biznes muhitini soddalashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish investitsion xavflarni kamaytirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhitini izchil takomillashtirish nafaqat kapital oqimlarini ko'paytiradi, balki iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- investitsiya qonunchiligini xalqaro standartlarga yanada moslashtirish va uning barqarorligini ta'minlash;
- hududlar kesimida investitsiya jozibadorligini baholashning yagona reyting tizimini takomillashtirish;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish hamda ularning moliyaviy shaffofligini oshirish;
- raqamli davlat xizmatlari ulushini kengaytirish orqali investorlar uchun ma'muriy tartib-taomillarni yanada soddalashtirish;
- yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion loyihalarni ustuvor ravishda qo'llab-quvvatlash.

Umuman olganda, investitsiya muhitini tizimli ravishda rivojlantirish O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xalqaro investitsiya maydonidagi mavqeini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4664142>
3. O'zbekiston Respublikasining 10.05.2019-yildagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 01.01.2020 <https://lex.uz/docs/-4674902>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2023. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
7. Абдуллаев А.Ш. Инвестиционная политика и экономический рост. – Ташкент: Экономика, 2018.
8. Эргашев Б.Х. Инвестиционный климат и механизмы его совершенствования в Узбекистане // Иқтисод ва молия. – 2020.



9. Юсупов К.А. Иностранные инвестиции и экономический рост: теоретические и практические аспекты. – Ташкент, 2019.
10. Рахимов Ф.М. Институциональные реформы и инвестиционная привлекательность экономики // Экономический вестник Узбекистана. – 2021.
11. Ниязов А.А. Давлат-хусусий шериклик механизмларининг иқтисодий самарадорлиги. – Тошкент, 2020.
12. Хатамов Н. Рақамли иқтисодиёт ва инвестиция жараёнлари. – Тошкент, 2021.
13. Dunning, J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. – London: Addison-Wesley, 1993.
14. Todaro, M., Smith, S. Economic Development. – New York: Pearson, 2020.
15. Sachs, J.D. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. – New York: Penguin Press, 2005.
16. Acemoglu, D., Robinson, J. Why Nations Fail. – New York: Crown Publishers, 2012.
17. UNCTAD. World Investment Report. – Geneva, 2022–2024.
18. World Bank. World Development Report. – Washington, DC, 2022–2024.
19. OECD. Policy Framework for Investment. – Paris, 2023.
20. World Economic Forum. Global Competitiveness Report. – Geneva, 2023.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---